


## I. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI


2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 10841,0 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilib, o'sish sur'ati 67,9 %ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 5419,8 mlrd. so'mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to'g'ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 3224,5 ming so'mni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko'p ulushi, ya'ni 67,7 foizi viloyatning 3 ta hududi hissasiga, jumladan, G'uzor tumani 27,2 foizi, Muborak tumani 18,1 foiz va Qarshi shahri 22,4 foiz hisobiga to'g'ri keldi.

### 2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so'm)




**2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o‘shish sur‘atlari (% da)**



Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Jumladan o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Shahrisabz shahri 3,0 m., Qarshi shahrida 133,2 %, Qamashi tumanida 140,0 foiz, Yakkabog’ tumanida 137,2 foiz, Chiroqchi tumani 127,3 foiz va Dehqonobod tumanida 117,7 foiz tashkil qildi.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida  
aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori**  
(ming soʻmda, % da)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori koʻrsatkichlari Muborak tumani 22095,1 ming soʻm, Gʻuzor tumani 14077,6 ming soʻm, Qarshi shahri 8642,2 ming soʻmni tashkil etdi. Aksincha past koʻrsatkichni Qamashi tumani 615,7 ming soʻm, Koson tumanida 618,6 ming soʻm va Chiroqchi tumani 634,8 ming soʻmni tashkil etdi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>10841,0</b>	<b>67,9</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1652,0</b>	<b>20,4</b>	<b>15,2</b>
budjet mablag'lari	529,4	99,4	32,0
O'z.Res. Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi	248,8	149,4	15,1
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	103,9	-	6,3
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	769,9	10,4	46,6
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>9189,0</b>	<b>119,9</b>	<b>84,8</b>
korxonalarining o'z mablag'lari (mahalliy budjetni qo'shgan holda)	2709,7	162,6	29,5
tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarz mablag'lari (homiy-rezidentlar mablag'larini qo'shgan holda)	480,8	105,5	5,2
horijiy investitsiya to'g'ridan-to'g'ri investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar	4649,9	110,6	50,6
aholi mablag'lari	1348,6	99,5	14,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko‘ra, eng yuqori ko‘rsatkich 2021- yil yanvar-sentabr oylarida kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobiga 4649,9 mlrd. so‘m, ya‘ni yakunga nisbatan 110,6 % ni tashkil qildi.

### 2021- yil yanvar-sentabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 4649,9 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,6 foizni tashkil qildi. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda Muborak tumanida 450,1 mlrd.so‘m va Qarshi tumanida 198,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Aksincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha past natijalar Qamashi va Yakkabog‘ tumanlarida 0,1 mlrd. so‘m to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya  
va kafolatlanmagan kreditlar**

*(mlrd. so‘m)*

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya	shu jumladan:	
		Investitsiya	Kredit		Reinvestitsiya	Kafolatlanmagan kreditlar
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>5419,8</b>	<b>1690,7</b>	<b>3729,1</b>	<b>1195,2</b>	<b>23,9</b>	<b>2959,1</b>
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	879,4	230,4	649,4	4,4	23,9	18,2
Shahrisabz	8,1	3,7	4,4	3,7	-	4,4
<i>tumanlar:</i>						
G‘uzor	1704,2	57,4	1646,4	57,4	-	1646,8
Dehqonobod	51,9	47,6	4,3	47,6	-	4,3
Qamashi	21,8	-	21,8	-	-	21,8
Qarshi	260,8	198,0	62,8	198,0	-	62,8
Koson	24,7	2,6	22,1	2,6	-	17,5
Kitob	362,8	308,8	54	308,8	-	54,0
Mirishkor	35,0	33,6	1,4	33,6	-	1,4
Muborak	1431,1	719,9	711,2	450,1	-	704,6
Nishon	66,4	48,5	17,9	48,5	-	-
Kasbi	40,2	40,2	-	40,2	-	-
Chiroqchi	13,3	-	13,3	-	-	13,3
Shahrisabz	504,2	-	504,2	-	-	395,1
Yakkabog‘	15,9	-	15,9	-	-	14,9

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**

	<i>Jami mlrd. so‘m</i>	<i>foizda</i>	<i>Davlat</i>	<i>foizda</i>	<i>Nodav- lat</i>	<i>foizda</i>
<b>Jami, mlrd. so‘m</b>	<b>10841,0</b>	<b>100,0</b>	<b>1347,3</b>	<b>12,4</b>	<b>9493,7</b>	<b>87,6</b>
<i>shu jumladan:</i>						
qurilish-montaj ishlari	4758,5	43,9	1157,4	85,9	3601,1	37,9
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jhozlar	5123,5	47,2	135,4	10,0	4988,1	52,5
boshqa xarajatlar	959,0	8,9	54,5	4,1	904,5	9,6

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining 2021- yil yanvar-sentabr oylarida mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlariga yo‘naltirilgan ulushi 43,9 foizni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo‘ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)


(mlrd. so‘m)

	<i>Yanvar-sentabr</i>			
	<i>2020- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2021- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>
<b>Jami:</b>	<b>14796,9</b>	<b>100,0</b>	<b>10841,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha</i>				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	439,2	3,0	650,5	6,0
tog‘-kon sanoati	5416,3	36,6	4060,8	37,5
qayta ishlash sanoati	653,0	4,4	671,3	6,2

	<i>Yanvar-sentabr</i>			
	<i>2020- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2021- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	4267,0	28,8	283,5	2,6
suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish	157,4	1,1	12,2	0,1
qurilish	351,3	2,4	941,3	8,7
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	98,3	0,7	216,0	2,0
tashish va saqlash	523,7	3,5	721,2	6,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	27,3	0,2	52,9	0,5
aloqa va axborotlashtirish	39,9	0,3	45,9	0,4
moliya va sug'urta faoliyati	24,9	0,2	19,6	0,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq ishlar	68,5	0,5	11,0	0,1
malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat	4,7	-	55,0	0,5
ma'muriy va qo'shimcha xizmatlar	4,4	-	4,2	-
davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta'minot	142,4	1,0	367,3	3,4
ta'lim	248,4	1,7	453,8	4,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	74,0	0,5	264,3	2,4
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	5,6	-	14,8	0,1
uy-joy qurilishi	778,5	5,3	711,5	6,6
boshqa faoliyat turlari	1472,1	9,9	1283,9	11,8



**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida 4060,7 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 37,5 %) tashkil etdi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 283,5 mlrd. so'm (2,6 %). Qayta ishlash sanoati 671,3 mlrd. so'm (25,1 %). Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 650,0 mlrd. so'm (6,0 %). Tashish va saqlash 721,2 mlrd. so'm (6,7 %) investitsiyalar jalb qilindi. Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash 216,0 mlrd. so'm (2,0 %). Suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish 12,2 mlrd. so'm (0,1 %). Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 264,3 mlrd. so'm (2,4 %). Ta'lim 453,8 mlrd. so'm (4,2 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 52,9 mlrd. so'm (0,5 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Ijtimoiy soha obyektlari qurilishi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 625,4 ming kv.m bo'lgan 3682 ta, shundan qishloq joylarida 423,1 ming kv.m 2287 ta uy-joylar foydalanishga topshirildi.


### Qurilish faoliyati

2021- yil yanvar-sentabr oylarida 4706,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 120,2 % ni tashkil etdi.


Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 4535,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,4 % ni (2020- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati 121,0 % ni) tashkil qildi.

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti

(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



**Qurilish ishlari hajmining o‘shish sur‘ati**  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, %da )



Xususan yuqori o‘shish sur‘atlari Muborak tumanida 186,4 %, G‘uzor tumanida 139,6 %, Chiroqchi tumanida 135,2 foiz kuzatildi.